



UDK: 351.071.2:342.5(575.1)

*Furqat JURAKULOV,*  
*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi professori,*  
*E-mail: furqat19800456@gmail.com*

*Siyosiy fanlar doktori O. Musayev taqrizi asosida*

## O'ZBEKISTONDA DAVLAT HOKIMIYATINING BO'LINISHI VA MUVOZANATNI TA'MINLASHGA DOIR ISLOHOTLAR

Аннотация

Maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatini qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga ajratish tamoyili hamda cheklov va muvozanat tizimining nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Davlat boshqaruvida amalga oshirilayotgan islohotlarning jamiyat barqarorligi, huquqiy davlatni mustahkamlash va fuqarolik jamiyati rivojlanishiga ko'rsatayotgan ta'siri yoritiladi. Shuningdek, hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, mas'uliyat va ta'sirchanlikni oshirishga qaratilgan yangi institusional mexanizmlar tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** davlat hokimiyati, hokimiyatni taqsimlash, cheklov va muvozanat tizimi, davlat boshqaruvi islohotlari, fuqarolik jamiyati.

## РЕФОРМЫ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА РАЗДЕЛЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ СИСТЕМЫ СДЕРЖЕК И ПРОТИВОВОЕСОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье анализируются принцип разделения государственной власти в Республике Узбекистан на законодательную, исполнительную и судебную ветви, а также теоретическое и практическое значение системы сдержек и противовесов. Освещается влияние проводимых реформ в государственном управлении на обеспечение общественной стабильности, укрепление правового государства и развитие гражданского общества. Кроме того, рассматриваются новые институциональные механизмы, направленные на повышение взаимодействия, ответственности и эффективности между ветвями власти.

**Ключевые слова:** государственная власть, разделение властей, система сдержек и противовесов, реформы государственного управления, гражданское общество.

## REFORMS AIMED AT THE SEPARATION OF STATE POWERS AND THE ESTABLISHMENT OF A SYSTEM OF CHECKS AND BALANCES IN UZBEKISTAN

Annotation

The article analyzes the principle of separating state power in the Republic of Uzbekistan into legislative, executive and judicial branches, as well as the theoretical and practical significance of the system of checks and balances. It highlights the impact of ongoing public administration reforms on ensuring social stability, strengthening the rule of law, and developing civil society. The study also examines new institutional mechanisms aimed at enhancing interaction, accountability, and effectiveness among the branches of power.

**Key words:** state authority, separation of powers, checks and balances, public administration reforms, civil society.

**Kirish.** Bugungi dunyoda qaysi siyosiy tuzum, qaysi iqtisodiy model yoki qaysi ma'muriy boshqaruv tizimiga ega bo'lishidan qat'iy nazar, har bir davlat uchun eng ustuvor va uzluksiz vazifa bu siyosiy barqarorlikni ta'minlash va jamiyatning izchil rivojlanishini kafolatlashdir. Insoniyat tarixining o'zi shuni ko'rsatadiki, barqarorlik va muvozanatni saqlashga qaratilgan vazifalar faqat ichki siyosat doirasida emas, balki davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda ham hal qilinib keladi. Jahon tajribasi shuni isbotlaydiki, barqaror siyosiy muhitni shakllantirish va saqlab qolishda eng asosiy va hal qiluvchi kuch bu davlatning o'zi va uning institusional imkoniyatlaridir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yangi O'zbekiston sharoitida bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ochiq, insonparvar va amaliy siyosatga asoslangan islohotlar siyosati mamlakatda yangi siyosiy muhit, fuqarolar va davlat o'rtasida yangi ishonch fazosini yaratdi. Bugun davlat barqarorlikni faqat qonun ustuvorligi yoki ma'muriy boshqaruv bilan emas, balki jamiyatning faolligi, ochiq muloqot, manfaatlar muvozanati va

xalqning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali ta'minlayotgani bilan ajralib turibdi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Prezidentimiz rahbarligida olib borilayotgan islohotlar davlat va jamiyat munosabatlarida sifat jihatidan yangi bosqichni boshladi. Siyosiy barqarorlikka intilish endilikda faqat hokimiyat strukturalarining muvozanati bilan cheklanib qolmay, balki odamlar hayotiga bevosita ta'sir qiluvchi keng qamrovli islohotlar, ikki tomonlama muloqot madaniyati va mas'uliyatli davlatchilik tamoyillari bilan boyitildi.

Shu ma'noda, hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi muvozanat, ularning o'zaro cheklov va hamkorlik mexanizmlari nafaqat davlat barqarorligining asosiy omili, balki Yangi O'zbekistonning siyosiy xavfsizligi, ijtimoiy barqarorligi va kelajakka ishonchini ta'minlovchi muhim ustunga aylandi.

Bugungi global voqelikda jamiyatning "tahdidlarga bardoshliligi" masalasi nafaqat siyosatshunos va ijtimoiy soha mutaxassislari, balki keng jamoatchilikning ham markaziy diqqat nuqtasiga aylandi. Jahon tez o'zgarayotgan hozirgi

davrdagi tashqi va ichki xatarlar, ma'lumot oqimining beqiyos kuchayishi, axborot xurujlari, mafkuraviy ta'sirlar, iqtisodiy beqarorlik, ekologik muammolar kabi omillar har bir davlatdan yangi fikr, yangi yondashuv, yangi institusional immunitetni talab qilmoqda. Shu boisdan jamiyatning tahdidlarga chidamliligi – zamonaviy davlat barqarorligining eng muhim mezonlaridan biriga aylandi.

Aynan shu nuqtai nazardan qaraganda, Yangi O'zbekiston sharoitida ushbu masala siyosiy-falsafiy tahlilda alohida ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatda amalga oshirilayotgan ochiqlik, adolat va inson manfaatlariga asoslangan siyosat jamiyatning ichki barqarorligini mustahkamlash, ijtimoiy muvozanatni saqlash va har qanday tashqi-ichki xatarlarga nisbatan institusional bardoshlilikni kuchaytirishga qaratilgani bilan alohida ahamiyatga ega.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tahdidlarga bardoshli jamiyatni shakllantirish, avvalo, mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimini chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Qadriyatlar iyerarxiyasi, fuqarolarning ijtimoiy faolligi, jamoat institutlarining jamiyat hayotidagi roli, hokimiyat va xalq o'rtasidagi ochiq muloqot darajasi – bularning barchasi barqarorlikni ta'minlovchi asosiy bo'g'inlardir.

Shuning uchun ham bugungi ilmiy-tadqiqotlarda faqat siyosiy jarayonlarni emas, balki jamiyatning ichki madaniy, ma'naviy va aksiologik (qadriyatlarga oid) asoslarini ham o'rganish zarurati keskin oshdi. Chunki jamiyatning barqarorligi faqat iqtisodiy ko'rsatkichlarda emas, balki uning fuqarolaridagi ishonch, ma'naviy bardosh, adolatga bo'lgan qat'iy ishonch va milliy g'oya atrofidagi bag'rikeng birlik bilan belgilanadi.

Shu bois tahdidlarga bardoshlilik masalasini siyosiy nuqtai nazardan o'rganish mamlakatning murakkab global sharoitda qanday yashab qolishi, ichki ziddiyatlarni qanday bartaraf etishi va kelajakka o'z yo'lini qanday belgilashi haqida muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Yangi O'zbekistonda keng qamrovli yangilanish va modernizatsiya jarayonlari kechayotgan hozirgi bosqichda eng muhim yo'nalishlardan biri bu yangi davlat hokimiyati tizimini, demakki, yangi siyosiy hokimiyat modelini shakllantirishdir. Mamlakat taraqqiyoti yangi bosqichga qadam qo'ygan bir paytda, milliy siyosiy elita hamda ilmiy jamoatchilik tabiiy ravishda rivojlangan davlatlar tajribasida sinovdan o'tgan, amaliy hayotda o'zini oqlagan nazariy asoslarga murojaat qildi.

Aynan shu tajribalar orasida davlat qurilishi uchun eng muhim poydevor sifatida xizmat qiladigan prinsip — hokimiyatning tarmoqlarga bo'linishi tamoyilidir. Dunyodagi ko'pchilik davlatlar ana shu tamoyilga asoslangan holda davlat mexanizmlarini barpo etadi; chunki bu prinsip nafaqat hokimiyatning oddiy ishlashini, balki uning samarali faoliyat yuritishini, jamiyatda zarur siyosiy dinamikning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Demokratik davlatlarning deyarli barchasi qabul qilgan ushbu tamoyilning muhim tarkibiy qismi cheklov va muvozanat tizimidir. Mazkur tizim hokimiyat tarmoqlarining mustaqilligi, o'zaro hamkorligi va faoliyati chegaralarini belgilabgina qolmay, balki ularning bir-birini tiyib turishi, chegaralab qo'yishi va nazorat qilishiga ham huquqiy asos yaratadi. Bu esa hokimiyatning bir qo'lda to'planib qolishini oldini oladi, demokratik taraqqiyot, barqarorlik, qonun ustuvorligi va jamiyatdagi manfaatlar muvozanatini ta'minlaydigan eng muhim kafolatdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi ham aynan shu yo'nalishdagi asosiy mexanizmlarni mustahkamlab, hokimiyatning tarmoqlarga bo'linishi tamoyilini xalq hokimiyatchiligining eng muhim sharti sifatida belgilab qo'ygan. Bu esa Yangi O'zbekiston davlatchiligida

demokratiya, ochiqlik va muvozanatli boshqaruvning huquqiy poydevorini tashkil etadi.

Konstitusiyaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi — qonun chiqaruvchi hokimiyatni, Vazirlar Mahkamasi — ijro etuvchi hokimiyatni, Konstitusiyaviy sud esa — sud hokimiyatini amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat rahbari sifatida hokimiyat tarmoqlarining muvofiqlashgan holda faoliyat yuritishi va o'zaro samarali hamkorligini ta'minlaydi.

**Tahlil va natijalar.** Har bir hokimiyat tarmog'i mustaqil hisoblanadi va o'z vakolatlarini faqat Konstitusiyada belgilab berilgan doirada amalga oshiradi. Har bir tarmoq boshqasining faoliyatiga aralashmaydi, bu esa hokimiyatlar bo'linishi, muvozanati va o'zaro cheklov mexanizmlarining amaldagi ifodasidir.

Shuni ta'kidlash zarurki, modernizatsiyaning asosiy tamoyili sifatida Prezident tomonidan ilgari surilgan "Davlat xalqqa xizmat qilishi kerak" degan g'oya butun islohotlar jarayonining ideologik tayanchiga aylandi. Shuning uchun ham O'zbekistonning yaqin istiqbolga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida asosiy ustuvor yo'nalish aynan davlat boshqaruvi va jamiyat qurilishi tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan.

Shu yo'nalishda amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinganda bir qator muhim jihatlarga ko'zga tashlanadi. Avvalo, xalq bilan ochiq va ta'sirchan muloqotning mutlaqo yangi tizimi shakllantirildi. Aholining muammolarini tez va samarali hal etishga qaratilgan qonunchilik va institusional mexanizmlar yangilanib, mamlakatdagi uzoq yillardan beri yechim kutgan bir qator masalalar tizimli hal etila boshladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqimiz tomonidan keng qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu o'zgarishlarning dastlabki natijalari bugunning o'zidayoq odamlar hayotida o'z aksini topmoqda, fuqarolarimizda ijtimoiy faollik, ishonch va kelajakka muhabbat kuchaymoqda. Jumladan, joylardagi rahbarlarning shaxsiy mas'uliyati oshirilib, ularning yo'l qo'ygan xatolari va kamchiliklarini tez va samarali bartaraf etish bo'yicha qo'yilgan talablar amaliy natija bermoqda. Bu tizimning eng muhim samalaridan biri sifatida davlat organlari rahbarlarining jamiyat oldidagi javobgarligi va mas'uliyati yanada yuksaldi.

So'nggi yillar mobaynida sud-huquq sohasini isloh qilish bo'yicha Prezident tomonidan bir qator qonun va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bu hujjatlar sud tizimining tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish, ish yuritish tartibini modernizatsiya qilish, sud amaliyotini yanada adolatli va ochiq-oshkora qilishda katta ta'sir ko'rsatdi.

Iqtisodiy sohada ham oxirgi yillarda zamon talablariga javob beradigan, samaradorlikka yo'naltirilgan tub islohotlarni amalga oshirishning dastlabki muhim qadamlari qo'yildi. Yangi sharoitda iqtisodiyotni tubdan yangilash uchun qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, keng qamrovli davlat dasturlari qabul qilinib, ular izchillik bilan hayotga tatbiq etildi. Bu jarayon iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida erkinlashtirish, huquqiy bazani mustahkamlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyani kengaytirishga qaratildi.

Eng muhim jihati shundaki, iqtisodiy siyosatda ilgari mavjud bo'lgan haqiqatdan uzoq, real hayotdan uzilgan "katta raqamlar ortidan quvish", statistik natijani real natijadan ustun qo'yish kabi asossiz yondashuvlar keskin tanqidiy qayta ko'rib chiqildi. Yutopik rejalar o'rniga, aniq natija beradigan amaliy vazifalarga e'tibor qaratildi. Eng asosiy maqsad etib — inson manfaati, real imkoniyat va adolat tamoyili ko'rsatildi.

Shu bilan birga, o'zbek jamiyatining mamlakatdagi jarayonlarga munosabati tom ma'noda o'zgardi. Xalq

islohotlarning to'laqonli ishtirokchisiga aylana boshladi. Odamlar avvalgi passiv kuzatuvchi emas, balki jamiyat va davlat o'zgarishiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan faol subekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Har kuni mamlakat bo'ylab ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga bag'ishlangan ochiq muhokamalar, jonli debatlar, tahliliy ko'rsatuvlar efigra uzatilayotgani ham bu jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Ana shu ochiq muhitda jamoatchilik fikri davlat siyosatiga real ta'sir ko'rsata boshladi, ijtimoiy faollik esa tubdan oshdi.

Prezidentimiz rahbarligida iqtisodiyotda yangi bosqichdagi keng qamrovli islohotlar boshlandi. Yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarishni texnologik yangilash va tashqi bozorlar bilan integratsiyani kuchaytirish davlat siyosatidagi ustuvor maqsadga aylandi.

Ta'kidlash o'rinliki, yangi davlatchilik modelini shakllantirish jarayoni ham juda murakkab iqtisodiy va ijtimoiy sharoitda kechganiga qaramay, mamlakat o'z yo'lini, milliy strategiyasini yaratishga erisha oldi.

Islohotlar jarayoni amalda shunga olib keldiki, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, hokimiyat tarmoqlari o'rtasida o'zaro tiyib turish va muvozanat mexanizmlarini joriy etish zaruriyati kun tartibiga yanada qat'iy ko'tarildi. Chunki haqiqiy, zamonaviy davlatchilik bu hokimiyat bir qo'lda jamlanmagan, aksincha, vakolatlar taqsimlangan, har bir tarmoq o'z mas'uliyati bilan faoliyat yuritadigan tizimdir.

Shu nuqtai nazardan, davlatning huquqiy va siyosiy institutlarini takomillashtirish, qonun chiqaruvchi va vakillik organlari vakolatlarini kuchaytirish, ularning nazorat funksiyalarini yanada oshirish dolzarb vazifaga aylandi. Bundan tashqari, sud tizimining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash, uning fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda to'la avtonom subekt sifatida ishlashi uchun shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, ushbu islohotlarning ilmiy va amaliy jihatdan puxta ishlab chiqilishi mamlakat uchun kelgusida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ular konstitusiyaviy hokimiyat bo'linishi tamoyilining amalda to'la joriy etilishi, taqsimlangan hokimiyatlar o'rtasida muvozanat va o'zaro tiyib turish tizimining samarali ishlashi, qonun ustuvorligi, adolatli

sud tizimi, hokimiyatning ochiqligi va mas'uliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan.

**Xulosa va takliflar.** Yakuniy natijada bu jarayonlar Yangi O'zbekistonning siyosiy-huquqiy poydevorini mustahkamlab, mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasida muhim o'rin egallamoqda. Barqaror rivojlanish, inson qadriini yuksaltirish, ochiq va javobgar davlatni shakllantirish bugungi siyosiy kursning asosiy yo'nalishlaridir.

Shu bilan birga, hokimiyat tarmoqlarining bo'linishi, ular o'rtasida samarali cheklov va muvozanat mexanizmlarining ishlashi, qonunlar ustuvorligini ta'minlash va inson qadriini yuksaltirish tamoyillari mamlakat taraqqiyotining strategik poydevorini tashkil etmoqda. Ushbu islohotlar nafaqat davlat boshqaruvida, balki jamiyat ongida ham muhim bir burilishni vujudga keltirdi.

Endilikda ushbu jarayonlarning asosiy xulosalarini quyidagi tarzda tizimlashtirish mumkin:

Birinchidan, hokimiyat tarmoqlarining aniq bo'linishi va ular o'rtasidagi muvozanat tizimi mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash va demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda hal qiluvchi omilga aylandi.

Ikkinchidan, Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan yangilanishlar davlat va jamiyat munosabatlarining mutlaqo yangi modelini shakllantirib, fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligini sezilarli darajada oshirdi.

Uchinchidan, iqtisodiyotdagi erkinlashtirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlari, xorijiy investitsiyalar uchun ochiqlik yangi o'sish nuqtalarini yaratib, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga zamin yaratdi.

To'rtinchidan, sud-huquq sohasida qabul qilingan qator qonunlar va Prezident hujjatlari adolatni ta'minlash, inson huquqlarini muhofaza qilish va sud tizimini haqiqatan mustaqil institut sifatida shakllantirishga xizmat qildi.

Beshinchidan, davlat boshqaruvining raqamlashtirilishi, elektron xizmatlar va ochiq platformalar fuqarolarning davlat bilan muloqotini yengil, tezkor va shaffof qildi.

Oltinchidan, amalga oshirilayotgan barcha islohotlar markazida inson manfaati, fuqarolik jamiyatining faolligi va milliy manfaatlarini himoya qilish nuqtai nazarlari turibdi.

#### ADABIYOTLAR

1. Авазов К. Х. Угрозоустойчивость общества в системе политического исследования //Общественные науки в современном мире: политология, социология, философия, история. – 2018. – с. 46-50.
2. Пахрутдинов Ш.И. Угрозоустойчивое общество в качестве фактора развития государства и общества//Конфликтология.- : 2016.-№ 4, с.67-83
3. 3.Указ Президента Республики Узбекистан от 07.02.2017 года № УП-4947 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан».
4. www.strategy.uz veb-sayti.
5. Шарифходжаев М. и др. Формирование открытого гражданского общества в Узбекистане. Т. «Мир экономики и права», 2002.
6. Хакимов, Р.Р. Реализация принципа разделения властей в Узбекистане / Р.Р. Хакимов. — // Право: история, теория, практика : материалы III междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, июль 2015 г.). Санкт-Петербург: 2015.с. 27-31.
7. K Avazov Internal and external threats of modernity, security and stability of the modern society and their affinity// «Russia and the moslem world» 3(297), p.102-114
8. Қосимов Б.А. Фуқаролик жамияти институтлари фаолиятини такомиллаштиришнинг баъзи жиҳатлари // CARJIS. 2022. №2.
9. Авазов К. Внешние и внутренние угрозы современности, безопасность и стабильность в обществе и их взаимосвязь//Россия и мусульманский мир.- Том 7. № 301, с.102-114